

## **8-dekabr-O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun**

Mavzu: 8- dekabr O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

Ta`limiy maqsad: o`quvchilarning huquqiy ongini o`stirish; jamiyatda qonun ustuvorligini anglatish va shu orqali faravon hayot barpo etish mumkin degan tushunchani singdirish;

Tarbiyaviy maqsad: o`quvchilarda qonunga hurmat, yurtga sadoqat tuyg`usini tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi maqsad: o`quvchilarni mustaqil fikrga ega bo`lgan, o`z haq-huquqlarini taniydigan, o`z kuch-qobiliyatiga tayanib yashaydigan shaxs sifatida shakllanishiga ko`maklashish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars uslubi: Suhbat, savol-javob, izlanish, aqliy hujum.

Dars jihozi: Buklaetlar, Davlatimiz ramzlari, mavzuga oid rasmlar, Konstitutsiya kitobi.

Darsning tarkibi

Tashkiliy qism: Salomlashish, yo`qlama qilish, sinfni darsga tayyorlash.

O`tilgan mavzuni mustahkamlash:

Yangi mavzu:

O`quvchilarga yo`llanma savollar berish orqali yangi mavzuni e`lon qilish:

-Konstitutsiya nima?

- O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

- O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida sizning burch va huquqlaringiz haqida nimalar deyilgan?

O`quvchilar fikrini tinglab to`ldirish

Rivojlangan mamlakatlarning ko`pchiligi o`zining Asosiy Qonuni -

Konstitutsiyaga ega. O`zbekiston Respublikasining ham o`z Asosiy Qonuni -

Konstitutsiyasi bor. Konstitutsiya 1992 yil 8-dekabrda o`n ikkinchi chaqiriq

O`zbekiston Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan. O`zbekiston

Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo`lim 26 bob va 128 maddadan iborat

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o`z xalqining huquqlarini himoya qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti imzolagan Qonunga muvofiq Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8 dekabr dam olish kuni deb belgilagan. Har yili biz shu

kunni umumxalq bayrami sifatida nishonlaymiz. O`zbekiston Respublikasining

Konstitutsiyasi o`z xalqining huquqlarini himoya qiladi. Hozirgi va kelajak avlodlar

oldiga yuksak ma`suliyatni ta`minlashda erishish, tinchlik va milliy totuvlikni

ta`minlash maqsadida qabul qilingan. Biz uni g`urur bilan “Baxtimiz Qomusi” deya olamiz.

Konstitutsiyam – mening bosh Qomusim!

Adolatga o`zing tamaltosh, Qomusim!

Quyosh bo'lib, mehr nurin soch, Qomusim,  
Kelajakka baxt eshigin och, Qomusim!

O`quvchilar O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalaridn aytishadi:  
O`quvchi:

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1-modda. O`zbekiston — suveren demokratik, respublika. Davlatning "O`zbekiston Respublikasi" va "O`zbekiston" degan nomlari bir ma`noni anglatadi.

O`zbekiston- ozod, hur Vatan!  
Quchoqlari to`la nur Vatan!  
Istiqloling abadiy bo`lsin,  
Dunyolar turguncha tur, Vatan!

Tuproq`ingda Jannat nafasi,  
Sen- bobomning orzu-havasi.

Iftixorim yuksak: Vatanim-  
O`zbekiston Respublikasi!

O`quvchi: O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 4-modda. O`zbekiston Respublikasining davlat tili o`zbek tilidir.

O`zbekiston Respublikasi o`z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatları va an`analari hurmat qilinishini ta`minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Shu tilda Temur bobo  
Lashkarga buyruq bergan.  
Navoiy tuzgan navo,  
Bobur gavharlar tergan  
Til-xalqning shavkat-shoni  
Bu bobolar kalomi  
Ona tilim unvoni-  
Davlat tili maqomi

O`quvchi:

Ona tilim, sen borsan shaksiz,  
Bulbul kuyin she`rga solaman.  
Sen yuqolgan kuning shubhasiz,  
Men ham to`ti bo`lib qolaman

O`quvchi:

Ona tilim, onajonim tili bu,  
Beshikdanoq singgan jonu quloqqa  
Elu yurtim, xonumonim tili bu,  
Qadimlikda o`xshar ons tuproqqa.

O`quvchi:

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 5-modda

O`zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o`z davlat ramzlari — bayrog`i, gerbi va madhiyasiga ega.

Bobom uqtirar takror  
Istiqlol bu- baxt deya  
Ozod Vatan ramzi bor:  
Bayroq, gerb va madhiya

Bugun dadam berar dars  
Asramog`ing shart, deya  
Ramzlar ham muqaddas  
Bayroq, gerb va madhiya.

O`quvchi:  
Sh`r:”Millat bayrog`i”Azim Suyun she`ri.  
Qora o`tmish qoldi ortda,  
Dorilomon kunlar yurtda.  
Mehr kuzda,muhabbatda,  
Porla millat bayrog`i.

O`quvchi:  
Se`r:”O`zbekiston bayrog`i”  
Bayrog`imda moviy rang samodan berar darak,  
Oq rangida doimo yaxshilikdir mushtarak,  
Yashil rangi hayotdir,ham yashnagan tabiat,  
Qip-qizil chizig`ida yashnagay yaxshi niyat.  
Osmon to`la yulduzlar hurligimiz nishoni,  
Oy istiqlol nishoni mustaqilikka belgi.

O`quvchi:  
She`r:”Tamg`a”,Iroda Yo`ldosheva she`ri.  
Tamg`amizga bir qarang, Amudaryo,Sirdaryo,  
Tovlanadi rang-barang. Chanqog`ingizni bosadi.  
Unga beradi chiroy, O`rtasida Humo qush,  
Tepasida hilol oy. Bizga omad tilaydi.  
Bir tomoni paxtazor, O`zbekiston nomini,  
Quyosh nurin sochadi. Jahon uzra taraydi.

O`quvchi:  
O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6-modda. O`zbekiston Respublikasining  
poytaxti — Toshkent shahri.  
Poytaxtimsan, Toshkentim,  
Bosh shahrimsan, bosh kentim!  
Ikki mingdan ohsa ham  
Navqiron va yosh kentim!  
Tarixlarda Shosh kentim,  
Saxiy, serquyosh kentim.  
Tengi yo`q, timsoli yo`q,  
Toshkentimsan, Toshkentim!  
O`quvchi:

O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 8-modda

Yuzlab millat-elatlar,  
Shu diyorning ahlimiz.

Millatdan qat'i nazar  
O'zbekiston xalqimiz.

Bag'ri kengdir bu yurtning,  
Ahillikda baxtimiz.

Qo'llarni mahkam tuting,  
O'zbekiston xalqimiz!

O'quvchi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 29-modda.

Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

Fikrlash, so'z, e'tiqod

Erkinligi bor bizda.

Tafakkur, erkin ijod

Jo'sh urar qonimizda.

“Avval o'yla”, deganlar

Fikrlaymiz, o'ylaymiz.

So'zga navbat kelganda

Odob bilan so'ylaymiz.

O'quvchi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 36-modda. Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

Men ham albatta

Bo'laman mulkdor.

Mulkdor bo'lishga

Hamma imkon bor.

Halol mehnatdan

Kelganda boylik,

Shubhasiz bo'lar

Turmush chiroylik.

O'quvchi:

40-modda. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

O'quvchi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 41-modda.

Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

Ona maktab quchog'ida Intilamiz maqsad sari,

Bepul ta'lim olamiz. Hali dovrug' solamiz.

Yurtboshimiz ardog'ida Istiqlolning farzandlari-

Komil inson bo`lamiz! Bizlar baxtli bo`lamiz!

O`quvchi:

50-modda. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo`lishga majburdirlar.

O`quvchi:

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55-modda. Yer, yer osti boyliklari, suv, o`simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Bugun ekkan qalamchang Tog` go`zal, o`tloq go`zal,

Ka-a-atta terak bo`ladi. Sevamiz gul atrini.

Faqat uni avaylab Esda tutaylik , do`stlar,

Asrash kerak bo`ladi. Tabiatning qadrini!


Guruhlar bilan ishlash:

<u>O`zbekiston Respublikasi</u>	<u>Davlat ramzlari</u>
<u>Qonun</u>	<u>O`zbekiston Respublikasi Prezidenti</u>
<u>I.A.Karimov</u>	<u>Davlatning Asosiy qonuni</u>
<u>Gerb , bayroq , madhiya</u>	<u>Konstitutsiya bo`vicha Vatanimizning nomlanishi</u>
<u>Oliy Majlis</u>	<u>Qonunlarni qabul qiluvchi oliy davlat organi</u>
<u>Konstitutsiya</u>	<u>Davlat tomonidan o`rganiladigan va barcha uchun majburiy qoidalar</u>

Yangi mavzuni mustahkamlash: Guruh bilan ishlash:

Bugungi mavzuni mustahkamlash uchun boshqotirmaning e`tiboringizga havola etaman.

1.Barchamiz uchun majburiy bo`lgan qoidalar.—(Qonun) 2.Milliy bayramlardan biri, (Navro`z) 3.Davlatimiz tili.(O`zbek) 4.Ramzlarimizdan biri. (Bayroq)



- O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

- Yurtimizda nishonlanadigan qanday bayramlarni bilasiz?

O`quvchilar javobini tinglab umumlashtirish, rag`batlantirish

O`quvchilarni baholash:

Uyga vazifa: O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi moddalari asosida rasm chizish